

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY METOD VA USULLARDAN FOYDALANISH

Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Annotatsiya. Maqlolada maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash jarayoni, aynan mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda qo`llaniladigan zamonaviy metodlar va usullar o`rganilgan bo`lib, bolalar psixik rivojlanishining o`ziga xos jihatlari, jahon va respublikamiz psixolog, pedagog olimlarining ilmiy tadqiqotlari tahlil qilingan. Bolalarda ijodiy tafakkurni hamda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda MTT va oilada olib boriladigan ishlar o`rganililgan holda zamonaviy va innovatsion texnologiya metod va usullarini qo`llash uchun namunalar keltirilgan.

Kalit so`zlar: Maktabgacha yosh, tafakkur, mantiqiy fikrlash, ijodiy tafakkur, maktabgacha ta`lim va tarbiya, tarbiyachi, psixolog olimlar, zamonaviy metodlar, usullar, mashg`ulot, faoliyat, jarayon.

Mamlakatimizda so`ngi yillarda maktabgacha ta`lim sohasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan Maktabgacha ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida¹ ham maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama, intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatlari maktabgacha ta`lim bilan qamrovini oshirish, maktabgacha ta`lim tizimiga innovatsiyalarini, ilg`or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi bir qator maqsadlar ilgari surilgan va bugungi kunga kelib sohada qator o`zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari maktabgacha va ilk davrlardayoq bolalarga to`g`ri ta`lim berishni davlat talabi² darajasida tashkil etilishi ham buning yaqqol misoli desak adashmagan bo`lamiz.

Ta`lim jarayonida o`quvchilarda mantiqiy va ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun maktabgacha yoshdanoq fikrlash xususiyatlarini shakllantirish zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlash operatsiyalari asosida tafakkur jarayoni faollashtiriladi.

Fikrlash - bilimlarni o`zlashtirish, voqeylekni bilish, voqealari hodisalarini tahlil (analiz-sintez) qilish, umumlashtirish asosida aqliy faoliyatni amalga oshirishda ifodalanadi. Fikrlash tug`ma emas, aksincha keyinchalik rivojlanadi. Fikrlash rivojlanishining ilk bosqichlari maktabgacha yosh davriga to`g`ri keladi. 6-7 yosh bola shaxs sifatida tez rivojlanadi. Chunki u allaqachon “Nima uchun?” davrini bosib o`tdi va endi berilgan savollariga o`zi mustaqil ravishda javob izlashga harakat qilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta`lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo`ladi va bolaning butun hayotiga ijodiy ta`sir qiladi. Shunday ekan, bolalar mantiqiy tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifalardan biriga aylanadi.

Tasavvur qilish - tafakkurning, mantiqiy fikrlashning rivojlanishidir. Bola hayotining 6-7 yillarda tasavvur qilishning o`ziga xos faolligi bilan tavsiflanadi. Dastlab bu faqat yaratuvchilik tasavvurlari

¹ PQ-4312-coh 08.05.2019. O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida (lex.uz)

² 3032-coh 03.07.2018. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida (lex.uz)

bo‘ladi, ya’ni, biron-bir ertaknamo qiyofalarni tasavvur qilishga imkon beradigan tarzda bo‘ladi, keyinchalik esa butunlay yangi qiyofalarni yaratishga qodir bo‘lgan ijodiy tasavvurga aylanadi. Bu bolada fantaziyani rivojlantirish uchun o‘ta muhimdir.

Bolaga ta‘limni erta, kech ham emas, balki o‘z vaqtida berish maqsadga muvofiqdir. Bolaning yoshiga mos tarzda shunday ta‘lim berish kerakki, bunda uning barcha hissiyot a‘zolari jalb etilgan bo`lsin. Ya‘ni bola rivojlanish jarayonida mustaqil ravishda o‘zi teginish, ko`rish, eshitish, hidlash va mazasini bilish imkoniyatiga ega bo`lishini ta‘minlash zarur.

Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtiolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

Rus psixolog olimi L.S.Vigotskiy kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar tafakkurining rivojlanishi jarayonida tushunchalarning shakllanishi hamda nutqning o‘sishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rgangan. Shuning uchun u xorij psixologlarining (birinchi navbatda J. Piajening) egotsentrif nutq konsepsiyasini qattiq tanqid qilib, tafakkurni genetik metod orqali o‘rganishni tavsiya qiladi.

O‘zbekistonda ham bolalarning pedagogik va psixologik rivojlanishi, tafakkur jarayonlari, fiklash jarayonlari ko`plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va etilmoqda, jumladan psixolog Z.T. Nishanova mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslari sohasida³(2005) ilmiy tadqiqotlар olib borgan bo`lsa, B. Saydullayeva maktabgacha yoshdagи bolalarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari⁴(2021) mavzusida tadqiqot olib borgan. Shuningdek, O. Abdurazzaqov, S.A. Buranova⁵lar ishlarida maktabgacha ta‘limda tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy, amaliy hamda ijtimoiy ahamiyatini belgilagan holda yangi metodlarni qo‘llash va uni amaliyotga tadbiq etish masalalari, M. Rustamova⁶, O.P. Aslonova⁷, I.I. To‘ychiyeva, G. Berdaliyevalar ishlarida esa bolaning rivojlanishida maktabgacha bo`lgan davri juda muhim ekanligi ta`kidlanadi. Bu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, psixologik salomatligi shakllanadi va aqliy rivojlanish qobiliyatlari takomillashadi.

Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, bolaning ijodiy tafakkurini hamda mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda quyidagi yo`llar, yani usul va metodlarni amalga oshirish mumkin: **Kitob o`qish**. Bola bilan birga kitob rasmlarini tahlil qilib o`qish, undagi ertakning mazmunini bolaga o‘yin tarzida qayta so`zlatish, o‘yinchoqlariga kitob mazmunini ayttirish juda foydali va qiziqarli mashg`ulot sanaladi. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir o‘xshatishga harakat qiladi, u o‘zi ertak yoki hikoyalarni mustaqil to`qiy olishi ham mumkin.

Chizish (bo`yoq, un, qum bilan). Bolalar odatda chizishni juda yaxshi ko`rishadi. Lekin uddalay olishmasa, xafa bo`lib chizmay qo`yishi ham mumkin. Bolaga qalamning o‘rniga qo`llarida chizishni (faqat maxsus bo`yoqlar bilan) taklif qilib ko`ring. Bo`yoqqa qo`llarini botirib, istagan narsani chizayotgan bola juda zavqlanadi (hamma yoq bo`yoq bo`lib ketishini inobatga oling). Yoki chala chizish mashg`ulotini qo`llang. Bunda siz bolaga biron-bir narsani oxiriga yetkazmasdan chizib berasiz. Bola esa o‘zi uni tugatib qo`yishi kerak.

Grafik diktant. Bunda tarbiyachi bolalarga geometrik shakllar, narsa-buyumlarni ayтиб turadi. Bolalar chizadi. Masalan, uchburchak, qush va boshqalar.

Bo`yash. Ayrim bolalar yaxshi chiza olmaydi, ammo chizishni xohlaydi. Bunday bolalarga tayyor rasmlarni bo`yash vazifasini topshirish mumkin. Ular rasmlarni bo`yar ekan, ertak qahramonlari bilan tanishadi. Shu bilan birga, qo`l harakati motorikasi, ijodiy tafakkuri ham

⁵ Buranova S.A. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida nutq o`stirish mashg`ulotlari orqali bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish (2022)

⁶ М.М. Рустамова . Бошланғич синф технология дарсларида ўқувчиларнинг ижодий тафаккурини ривожлантириш методикаси (2022)

⁷ Аслонова О. П.Бошланғич синф ўқувчиларида тафаккур тезлигини шакллантиришнинг педагогик шартшароитлари-2020

rivojlanadi.

Pazl. Pazl yasash bola xotirasini rivojlantiruvchi juda foydali mashg`ulot. Bola yaxshi ko`rgan rasmlardan unga pazl olib bering yoki o`zingiz yasab bering.

She`r yodlash. Bolaning xotirasini rivojlantirish maqsadida har kuni bitta kichik she`r yodlating.

Origami (yaponcha - qog`ozni yig`ish). Yaponlarning qalbini aks ettiruvchi, to`rtburchak qog`ozdan shakllar yasash san`atidir. Bu san`atni o`rgatish bolalarda tasavvur qilish, fikrlash qobiliyati va barmoqlar motorikasini rivojlantirishga yordam beradi.

Kusudami (yaponcha dori-shar). Yaponlarning qog`ozdan yumaloq shakllar yasash san`ati.

Bolalar teatri. Bu usul bolalar qo`l motorikasini rivojlantirishda qo`llaniladi.

O`yin. Bola o`yin jarayonida amaliy ehtiyojlarga qaram bo`lmaydi. Bunda u o`zining bevosa ethiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi hamda jarayonda o`z taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari va unga bo`lgan o`z munosabatlarini aks ettiradi. Bolaning ijodiy tafakkuri va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda yuqorida usul va metodlarni belgilangan tarzda amalga oshirish mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshidagi bolalarning mantiqiy tafakkurida kattalar, yani ota-onalar va tarbiyachilarning bolalarga bo`lgan munosabati muhimdir. Bu munosabatni ifodalash shakli muloqot uslubidir. Aynan kattalar va maktabgacha yoshdagi bolalar o`rtasidagi muloqot uslubi bolaning fikrlash faoliyatini qiyinlashtirishi mumkin, ba'zan esa mantiqiy mushihada va fikrlash bilan bog'liq haqiqiy, ba'zan esa uzoq vaqtдан beri mavjud bo`lgan qiyinchiliklar sezila boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shu qiyinchiliklarni yengib o`tib, mantiqiy fikrlash jarayonlarini rivojlantirishda zamonaviy metod va usullardan foydalanishni tavsiya qilamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy va ijodiy tafakkur jarayonlarini rivojlantirishda zamonaviy metod va usullar samarali natija berishi uchun quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilar uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy va ijodiy tafakkur jarayonlarini rivojlantirish masalalari bo`yicha davriy psixologik va uslubiy o`quv mashg`ulotlari tashkil etish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy va ijodiy tafakkur jarayonlarini rivojlantirish zamonaviy metodlarini aniqlash orqali ulardagi ijodiy tafakkur jarayonini rivojlantirish uchun bolalar yoshiga mos usul va mashqlar ishlab chiqish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning sog`lom fikr yuritishga oid bilimlarini rivojlantirish uchun tarbiyachilar ota-onalar bilan pedagogik-psixologik maslahat suhbatlari tashkil etishlari;
- maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash jarayonini yanada rivojlantirish uchun MTTdagi faoliyatni bolalarni jalb etuvchi, yanada qiziqarli innovatsion metod va usullar bilan boyitish.
- maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlash jarayonining samarali bo`lishi uchun zamonaviy ITlardan foydalanishni yo`lga qo`yish.

Ko`rinib turibdiki, maktabgacha maktabgacha yoshdagi bolaning hayoti va faoliyati shartlari tubdan o`zgarib ta'lif faoliyati yetakchi o`rinni egallaydi. Ta'lif faoliyati uchun esa mantiqiy fikrlash jarayoni zaruriy shart hisoblanadi. Shu munosabat bilan katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda shakllanishi kerak bo`lgan mantiqiy fikrlash jarayoni alohida ahamiyatga ega. Bola maktab ostonasiga qadam qo`yishi va bilimlarni egallashi uchun tafakkur qilishi, mantiqiy fikrlashi zarur. Aynan maktab bolalarga ilm-fan olami eshiklarini ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020 yil, 23 sentabr)
2. "Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli qarori 2017 yil 9 sentyabr
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Мактабгача таълим ва тарбиянинг давлат стандартини тасдиқлаш тўғрисида қарори, 22.12.2020 йилдаги 802-сон
4. Акрамова Ф.А. Мактабгача таълимнинг психологик жиҳатлари // Замонавий таълим журнали. – Тошкент, 2015. - №2. – Б. 53-58.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalarni-ijodiy-qobilyatini-rivojlantirishning-maqсад-ва-vazifalari?ysclid=lizw1nzvnl94173120>
6. NG Malikovna, Bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning o'rni. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI 1 (2), 100-105
7. Г Назирова, И Саминова, МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ВОСПИТАНИКОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ, Академические исследования в современной науке 2 (24), 182-186
8. NG Malikovna, MM Nurmatovna, Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education, ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact ...
9. NA Sultonova, I Sh, D Xolqoziyeva - TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES, European Journal of Research and Reflection in Ed, 2020
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:_FxGoFyzp5QC
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C
13. EM Akilovna, THE COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE APPLICATION OF TECHNOLOGIES FOR THE ORGANIZATION OF HEALTH CARE WORK FOR CHILDREN OF PRESCHOOL AGE, INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ...
14. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=x8zmCUkAAAAJ&citation_for_view=x8zmCUkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC
15. НА Султонова, К Ўлмасова, Кичик мактаб ёшидаги ўкувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш- Интернаука, 2020
16. Н Султонова, ОРГАНИЗАЦИЯ ИГРОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ В РАЗВИВАЮЩИХ ЦЕНТРАХ, Interpretation and researches 1 (1)